

**“Smart bank” aksiyadorlik jamiyati
Aksiyadorlar umumiy yig‘ilishining
2025 yil 18 yanvardagi
1-sonli yig‘ilish bayonnomasiga
9-ilova**

Bank tomonidan ro‘yxatdan o‘tkazildi.

Ro‘yxat raqami: I-81

Sana: 20.01.2025 yil

Imzo

**«SMART BANK» AKSIYADORLIK JAMIYATINING
DIVIDEND SIYOSATI
(yangi tahriri)**

Toshkent – 2025 yil

Mazkur “Smart bank” aksiyadorlik jamiyatining dividend siyosati” (keyingi o‘rinlarda Siyosat deb yuritiladi) O‘zbekiston Respublikasining “Banklar va bank faoliyati to‘g‘risida”gi, “Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida”gi qonunlari va boshqa amaldagi qonunchilik hujjatlariga hamda “Smart bank” aksiyadorlik jamiyati Ustaviga muvofiq ishlab chiqilgan.

1-bob. Umumiy qoidalar

1. Ushbu Siyosat “Smart bank” aksiyadorlik jamiyatining (keyingi o‘rinlarda Bank deb yuritiladi) dividendlarni shakllantirish, taqsimlash va to‘lash tartibotini belgilab beradi.

2. Bank Kuzatuv kengashi tomonidan aksiyalar bo‘yicha dividendlar miqdorini belgilash va to‘lash tartibi yuzasidan tavsiyalar ishlab chiqishda ushbu Siyosatdan foydalaniladi.

Mazkur Siyosat asosida dividendlar to‘lash masalalarida amaldagi qonunchilik hujjatlari bilan noaniqlik holatlari vujudga kelganda aksiyadorlar manfatlari himoya qilingan holda amaldagi qonunchilik hujjatlari meyorlari asosida hal qilinishi lozim.

3. Siyosat 3 (uch) yil muddatga ishlab chiqilgan bo‘lib, mazkur 3 (uch) yillik davrda Bank tomonidan olingan sof foyda Bank Kuzatuv kengashining tavsiyasiga muvofiq Aksiyadorlar umumiyligi yig‘ilishi qaroriga asosan taqsimlanadi.

4. Bank aksiyadorlarga dividendlar to‘lash bo‘yicha qaror qabul qilish huquqiga ega hamda e’lon qilingan dividendlarni to‘lash Bankning majburiyati hisoblanadi va aksiyadorlar oldida e’lon qilingan dividendlarni (soliq to‘lovlardan tashqari) to‘liq miqdorda to‘lanishi bo‘yicha javobgar hisoblanadi.

2-bob. Siyosatning asosiy maqsadi va tamoyillari

5. Siyosatning asosiy maqsadi Bank va aksiyadorlarning moliyaviy holatini mustahkamlash, kapitallashuv darajasini oshish, Bank aksiyalarning kotirovkasini saqlab turish hisoblanadi.

6. Siyosati quyidagi tamoyillar asosida amalga oshiriladi:

shaffoflik – dividendlar miqdori va uni to‘lash to‘g‘risida qaror qabul qilish shartlari va tartibi, Siyosatni amalga oshirida ishtirok etuvchi tomonlarning mas’uliyati va majburiyatlari to‘g‘risidagi ma’lumotlarni aniqlash va oshkor etish;

mavridiylik (muddatlilik) – dividendlar to‘lovini amalga oshirishda muayyan muddatini belgilash;

asoslanganlik – Bankning mavjud moliyaviy holatini hisobga olgan holda, faqatgina ijobiy moliyaviy natijalarga erishgan taqdirda dividendlar miqdori va ularni to‘lash haqida qaror qabul qilish;

adolat – dividendlar miqdori va uni to‘lash tartibi to‘g‘risida qabul qilinadigan qaror haqida ma’lumotlarni olishda teng huquqlikni ta’minalash;

mantiqiylik – Siyosatning tartib - tamoyillarini qat’iy ijrosi;

rivojlanish – Bankning strategik maqsadlari o‘zgarishi natijasida korporativ boshqaruvni yanada yaxshilash maqsadida meyoriy hujjatlarni muntazam ravishda takomillashtirish;

barqarorlik – Bankning dividendlar to‘lovi darajasini barqarorligini ta’minalashga intilishi.

3-bob. Dividendlar miqdorini aniqlash va hisoblash tartibi

7. Bank Kuzatuv kengashi Aksiyadorlar umumiy yig‘ilishiga aksiyalar bo‘yicha dividendlar miqdorini, to‘lash tartibi va shakli yuzasidan tavsiya kiritadi. Dividendlarning miqdori Kuzatuv kengash tomonidan tavsiya etilgan miqdordan ko‘p bo‘lishi mumkin emas.

Bunda Bank Kuzatuv kengashi tomonidan tashqi auditorlik kompaniyasi tomonidan moliyaviy hisobotning ishonchliligi haqidagi xulosasi va ushbu moliyaviy hisobot ma’lumotlari asosida dividendlar to‘lash bo‘yicha tavsiya beriladi.

8. Dividendlar Bank tasarrufida qoladigan sof foydadan va (yoki) o‘tgan yillarning taqsimlanmagan foydasidan to‘lanadi.

9. aksiyadorlar umumiy yig‘ilishi dividendlar to‘lash bo‘yicha qabul qiladigan qarorida quyidagilar aks ettirilishi lozim:

dividendlar to‘lanadigan aksiyalarning turlari;

bitta aksiyaga to‘g‘ri keladigan dividendlar miqdori (so‘mda va/yoki foizda);

dividendlarni to‘lash tartibi va muddati.

10. Bank quyidagi holatlarda dividendlar to‘lash to‘g‘risida qaror qabul qilishga haqli emas:

dividendlar to‘lanadigan davrida Bankda to‘lovga qobiliyatsizlik belgilari mavjud bo‘lsa yoki shunday belgilar dividendlarni to‘lash natijasida vujudga kelsa;

Bank sof aktivlarining qiymati uning ustav kapitali va zahira kapitali summasidan kam bo‘lsa;

O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan belgilangan iqtisodiy normativlarni buzish, shuningdek agar dividendlar to‘lash natijasida iqtisodiy normativlar buzilib, buning oqibatida omonatchilar va kreditorlar manfaatlariga jiddiy xavf tug‘ilsa;

Bankka nisbatan O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankning dividendlar to‘lashni to‘xtatish to‘g‘risida talabi mavjud bo‘lsa.

11. Bank dividendlar miqdorini ulardan undiriladigan soliq to‘lovlarini inobatga olmagan holda e’lon qiladi.

12. Dividendlar bo‘yicha soliq to‘lovlarini amaldagi soliq qonunchiligi hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladi.

4-bob. Dividendlarni to‘lash muddati va tartibi

13. Dividendlar Aksiyadorlar umumiy yig‘ilishi qaroriga qaroriga ko‘ra pul mablag‘lari yoki boshqa qonuniy to‘lov vositalari yohud Bankning qimmatli qog‘ozlari bilan to‘lanishi mumkin. Bunda imtiyozli aksiyalari bo‘yicha dividendlarni qimmatli qog‘ozlar bilan to‘lashga yo‘l qo‘yilmaydi. Shuningdek, e’lon qilingan dividendlar O‘zbekiston Respublikasi milliy valyutasida to‘lanadi.

14. Dividendlar Aksiyadorlar umumiy yig‘ilishi qarori qabul qilingan kundan boshlab 60 (oltmish) kun muddatda to‘lanishi lozim.

15. Egasi yoki egasining qonuniy huquqiy vorisi yoxud merosxo‘ri tomonidan 3 (uch) yil ichida talab qilib olinmagan dividendlar Bank ixtiyorida qoladi.

16. Dividendlar Aksiyadorlar umumiy yig‘ilishi tomonidan belgilangan muddatlarda Bankning aybi bilan to‘lanmagan (olinmagan) taqdirda to‘lanmagan (olinmagan) dividendlar bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan belgilangan qayta moliyalashtirish stavkalaridan kelib chiqqan holda penya hisoblanadi. To‘lanmagan (olinmagan) dividendlar bo‘yicha hisoblanadigan penyalar miqdori to‘lanmagan (olinmagan) dividendlar miqdorining 50 (ellik) foizidan ortiq bo‘lmasligi kerak.

5-bob. E’lon qilingan dividendlar bo‘yicha javobgarlik

17. Bank tomonidan aksiyalar bo‘yicha e’lon qilingan dividendlarni to‘lash Bank majburiyati hisoblanadi va aksiyadorlar oldida e’lon qilingan dividendlarni (soliq to‘lovlardan tashqari) to‘liq miqdorda to‘lanishi bo‘yicha javobgar hisoblanadi.

18. Bank Boshqaruvi aksiyadorlar oldida o‘z vaqtida va to‘liq miqdorda dividendlar to‘lovlari amalga oshirish bo‘yicha javobgar hisoblanadi.

19. Bank Kuzatuv kengashi zaruriyat yuzasidan Bank Boshqaruvi tomonidan aksiyadorlarga dividendlarni o‘z vaqtida to‘lanishi masalasini muhokama qilish va aniqlangan kamchiliklar yuzasidan tegishli intizomiy choralarini qo‘llash yuzasidan qaror qabul qilish huquqiga ega.

20. Bank tomonidan o‘z vaqtida dividendlar to‘lovleri amalga oshirilmagan taqdirda aksiyadorlar o‘ziga tegishli bo‘lgan dividendlarni Sudga ariza berish tartibda undirish huquqiga ega.

6-bob. Axborotlarni oshkor qilish tartibi

21. Bank tomonidan to‘lanadigan dividendlar miqdori to‘g‘risidagi ma’lumotlarni qimmatli qog‘ozlar bozorini tartibga solish bo‘yicha vakolatli davlat organining va Bankning rasmiy veb-saytlarida qonunchilik hujjatlarida belgilangan muddatlarda e’lon qiladi.

22. Aksiyadorlar umumiy yig‘ilishi qarori Bank tomonidan qimmatli qog‘ozlar bozorida axborotni taqdim etish va oshkor qilish tartibiga asosan

qonunchilikda belgilangan tartibda oshkor qilinadi.

7-bob. Yakuniy qoidalar

23. Aksiyadorlar o‘z aksiyalari bo‘yicha unga hisoblangan dividendlar miqdori, hisob-kitobi va soliq to‘lovlari yuzasidan bankka rasman murojaat etishga haqli.

24. Mazkur Siyosat talablariga rioya qilinmagan mas’ullar qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda javobgarlikka tortiladi.

25. Mazkur Siyosatga kiritiladigan o‘zgartirish va qo‘srimchalar Aksiyadorlar umumiy yig‘ilishi tomonidan tasdiqlanadi.

26. Mazkur Siyosat bilan tartibga solinmagan masalalar O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda hal etiladi.

27. Ushbu Siyosatning alohida bandlari amaldagi qonunchilik hujjatlariga zid bo‘lsa, ushbu bandlar o‘z kuchini yo‘qotadi va ushbu bandlarga o‘zgartirish va qo‘srimchalar kiritilgunga qadar O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchik hujjatlari normalariga amal qilinadi.